

IRODA ABDULLAYEVA

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

O'ZBEKISTONDA DEPOZIT BOZORI TADQIQI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada jalb qilingan resurslar, depozit va uning turlari, o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi va unga ta'sir etuvchi omillar, O'zbekistonda depozit bozori tadqiqatlari va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida mavzuga oid turli ilmiy-nazariy qarashlar yoritilgan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: resurslar, depozit, depozit operatsiyalari, deposit siyosati, kredit siyosati, kapital, jalb qilingan mablag'lar, depozit sug'urtasi.

EXPLORATION AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF THE DEPOSIT MARKET OF UZBEKISTAN

Abstract: In this article, various scientific and theoretical topics related to the involved resources of banks, deposit types, the last changes and the main predictors were studied, deposit market exploration was conducted, and development perspectives for Uzbekistan were analyzed. Relevant conclusions were formed based on the performed analysis.

Keywords: resources, deposit operations, deposit types, deposit policy, capital, attracted funds, share, liabilities, income.

Kirish

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy resurslarga katta ehtiyoj mavjud. Ushbu ehtiyojlarni qanoatlantirishda banklar va u orqali jalb qilinadigan mablag'lar muhim o'rin tutmoqda. Qolaversa, rivojlangan mamlakatlarda ham banklarning yangi loyihalarni moliyalashtirish, aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini yaxshilashdagi ahamiyati oshib bormoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarishni kengaytirish, yosh tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash va buning natijasida ishchi o'rinlar yaratish, yangi ochilgan korxonalarni moliyaviy qo'llab quvvatlash maqsadida banklar tomonidan kreditlar ajratilishi va kreditlar asosiy qismi jalb qilingan resurslar xisobiga amalga oshirilganligi sababli, o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

T. Karaliyevning banklar va depozitlar haqidagi ilmiy ishlari tijorat banklari faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirishga bag'ishlangan. U

bank xizmatlari bozorida raqobatni oshirish, moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida onlayn depozit va kreditlashni rivojlantirish orqali operatsion samaradorlikni oshirish, shuningdek mijoz bazasini kengaytirish uchun moslashuvchan tarif siyosatini ishlab chiqishni taklif etadi [1].

Banklarning ixtiyoriy xatti-harakatlariga omonatchilarning qanday munosabatta bo'lishi-moliya va bank sohasi tadqiqotlaridamuhim mavzu hisoblanadi. Dung Viet Tran va boshqa olimlarning ishlari bu borada qimmatli tahlillarni taqdim etadi.

Tadqiqotdan asosiy xulosalar:

1. Foiz stavkalariga sezgirlik:

Omonatchilar ko'oincha banklar taklif qiladigan foiz stavkalariga sezgir bo'ladilar. Agar bank raqobatbardosh stavkalarni taklif qilsa, omonatchilar mablag'larini saqlab qolishlari yoki oshirishlari mumkin. Aksincha, foiz stavkalari pasayganda, ayniqsa raqobat muhitida, mablag'larni boshqa banklarga o'tkazish ehtimoli ortadi.

2. Xavf va bank barqarorligi:

Agar bank xavfli kredit siyosatini olib birsam yoki barqarorligini yo'qotish mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilsa, omonatchilar o'z mablag'larini olib qo'yishga moyil bo'ladi. Ayniqsa depozit sug'urtasi bo'lmasa bu xavf yanada kuchayadi.

3. Ochiqlik va ishonch:

Banklar ixtiyoriy qarorni ochiq va aniq tushuntirmasdan qabul qilsa, omonatchilarning ishonchi kamayishi mumkin. Masalan, kutilmagan shartlarning o'zgarishi, yashirin to'lovlar yoki noaniq siyosatlar omonatchilarning noroziligiga olib keladi.

4. Ijtimoiy-psixologik omillar:

Tadqiqotlar, jumladan, Dung Viet Tranning ishlari shuni ko'rsatadiki, omonatchilar faqat iqtisodiy manfaatlar asosida qaror qabul qilmaydi. Bankka bo'lgan sadoqat, qulaylik yoki hissiy bog'liqlik bo'lgan omillar ham muhim rol o'ynaydi.

5. Iqtisodiy va me'yoriy muhit:

Katta rivojlangan iqtisodiyotlarda, depozit sug'urtasi mavjud bo'lgan joylarda omonatchilar banklarning ixtiyoriy xatti-harakatlariga kamroq sezgir bo'lishadi, chunki omonatlari xavfsiz deb hisoblanadi.

Biroq, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yoki moliyaviy inqiroz davrida, omonatchilar tezroq munosabat bildiradi va banklardan banklardan mablag'larni olib qo'yishi yoki yuqori xavf uchun yuqoriroq foiz talab qilishi orqali nomoyon bo'ladi [2].

Lei Li va boshqalar fikricha depozit bozorining qudrati banklarning uzoq muddatli kredit berish qobiliyatiga yordam beradi. Ko'p depozit resursiga ega bo'lgan banklar kamroq kredit yo'qotishlarga ega. Yuqori uzoq muddatli kredit

taklifi real o'sishga yordam beradi. Depozit bozorining kuchi kredit davrlarini yumshatishga yordam beradi.[3]

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan nazariy manbalar hamda amaliyotchilari iqtisodiy tahlillarini o'rganar ekanmiz, shu narsaga amin bo'ldikki, «bank resurslari» tushunchasiga katta e'tibor berilgan. Masalan, E.Rid, R.Kotter, E.Pill va R.Smitlarning[4] muallifligi ostida chop qilingan «Kommercheskie banki» kitobida bank balansini guruhlashtirilgan holda ko'rish mumkin va unda pul mablag'larining manbalariga alohida e'tibor berilganligi hamda ularni tadqiq etishda banklarning passiv operatsiyalarini chuqur tahlil qilish zarurligi uqtirilganining guvohi bo'ldik. Yana bir guruh D. Polfreman va F. Ford [5] kabi iqtisodchi olimlar bank faoliyatini tahlil qilishdabank resurslarini, bank passivlari deb ko'rib chiqishgan hamda ular bank aksionerlari mablag'lari va jamg'armachilarining mablag'laridan tashkil topgan, degan fikrni bildirishgan. Bu qarashning ikkinchi jihatida shundaki, tijorat banklari shu resurslarni o'z majburiyatlarini bajarishi uchun mukammal joylashtirishni afzal ko'radi va shu orqali resurslardan yuqori samara olish uchun qattiqkredit siyosatini olib boradi, hamda tijorat banklarining faoliyati mijozlari oldida olganmajburiyatlarini bajarishga qaratilgan bo'ladi. Shundan kelib chiqib, «bank resurslari» nafaqat qarzmajburiyatlari yoki egalik huquqini olish uchun mablag' jalb qilish, balki bank uchun daromadkeltiradigan zahira va imkoniyat hamdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Bugungi kunda banklarning asosiy mablag'lari o'sishi aksiyadorlarni jalb qilish va ularning mablag'larini joylashtirish hamda olingan daromadlardan ajratmalar ajratish, zaxira fondlari yaratish va maqsadli zaxiralar tuzish orqali amalga oshirilmoqda. Bankning passiv operatsiyalarini yuritish orqali ya'ni depozitlarga jalb qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha va jamg'arma, muddatli omonatlariga, vaqtincha yoki talab qilib olinguncha shartlari bo'yicha joylashtirish orqali olib borilmoqda.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda banklarning asosiy mablag'lari o'sishi aksiyadorlarni jalb qilish va ularning mablag'larini joylashtirish hamda olingan daromadlardan ajratmalar ajratish, zaxira fondlari yaratish va maqsadli zaxiralar tuzish orqali amalga oshirilmoqda.

Bankning passiv operatsiyalarini yuritish orqali ya'ni depozitlarga jalb qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha va jamg'arma, muddatli omonatlariga, vaqtincha yoki talab qilib olinguncha shartlari bo'yicha joylashtirish orqali olib borilmoqda.

1-jadval

ATB Mikrokreditbank moliyaviy ko'rsatkichlari,(mln so'mda)[6]

Ko'rsatkichlar nomi	№	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024
Bank aktivlari, jami	1	10 282 916	13 483 354	16 782 497	19 061 519
Kredit portfeli, jami	2	7 864 447	8 541 014	13 318 624	14 169 517
Jami majburiyatlar	3	8 544 626	11 162 257	13 138 514	15 127 911
Jalb qilingan depozitlar qoldig'i	4	2 460 211	3 153 675	5 409 196	6 361 178
Jamg'arma depozitlar	5	118 982	42 727	11 967	10967
Talab qilib olinguncha depozitlar	6	395 793	430 999	625 550	562028
Muddatli depozitlar	7	1 607 164	2 400 995	4 433 614	5 483 939
Boshqa depozitlar (22600 h-r)	8	303 173	259 354	208 198	304244
Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	9	35 100	19 600	10 000	0
Jami kapital	10	1 738 290	2 321 096	3 643 911	3 933 608
Ustav kapitali	11	1 641 728	2 197 142	3 547 333	3 795 927
Bank foydasi	12	100 029	38 443	21 315	41 104
Bank mijozlar bazasi	13	1 245 411	1 644 874	1 884 941	2048941

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Mikrokreditbankbank" ATB balansi 2021–2024 yillar davomida 10282 mlrd.so'mdan **19 061** mlrd. so'mga yoki 185 foizga ko'paygan. Bank balansining oshib borishi mijozlarning depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larning ko'payishi (ya'ni, 2021 yildagi **2 460** mln.so'mdan 2024 yilda **6 361** mln.so'mgasha yoki 258.5 foizga oshgan).

Depozit tarkibini ko'rib chiqadigan bo'lsak, talab qilib olinguncha depozitlar 2021 yilda 395 793 mln.so'mdan 2024 yilga kelib 562028 mln.somga oshgan.

Muddatli depozitlar esa 2021 yildagi 1 607 164 mln.so'mdan 5 483 939 mln.so'mga ya'ni 341.2 foizga oshgan. Muddatli depozitlar salmog'ining oshishini ijobiy baholash mumkin.

Jamg'arib boriladigan depozitlar esa 2021 yildagi 118 982 mln.so'mdan 10967 mln.so'mga ya'ni 9.2 foizga kamaygan. Jamg'arib boriladigan depozitlarning kamayishiga bir qator omillar sabab bo'lgan:

-aksariyat banklarda jamg'arib boriladigan depozitlar qotib qolgan foiz stavkalaridan foydalanishadi. Bu esa inflyatsiya yuqori bo'lgan sharoitda mijozlarga kam foyda keltiradi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda "Mikrokreditbank" ATB faoliyatiga uzoq muddatli davrda o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin bo'lgan quyidagi tendensiyalarni qayd etish mumkin:

birinchidan, bankning resurs bazasida jismoniy va yuridik shaxslardan jalb etilgan jamg'arma deposit salmog'i kamayib bormoqda. Bunday vaziyat makroiqtisodiy vaziyatning salbiy ta'siri (inflyatsion jarayonlar kushayib borishi sharoitida jismoniy va yuridik shaxslarning omonatlari milliy valyutadan xorijiy valyutaga o'tkazilishi, aholi o'rtasida kambag'allik holatlarining kuzatilishi hisobiga turli manbalardan olingan daromadlarni joriy hisob-kitoblarni amalga oshirish ushuni naqdlashtirish holatlari kushayib borishi va boshqalar), ichki va tashqi manbalardan taklif etilayotgan resurslar qiymatining omonatlar bo'yisha belgilanayotgan foiz stavkalariga nisbatan arzonligi va boshqa omillar ta'siri bilan izohlanishi mumkin, yana bir sabab jamg'arma depozitlarning foizi pastlikdan va depozit turining diversifikatsiya qilinmaganidan.

ikkinchidan, ichki va tashqi manbalardan jalb etilgan qarz mablag'lari hajmining kattaligi makro va mikrodarajagi iqtisodiy holatning yomonlashuvi sharoitida bankning joriy likvidlilikni yo'qotish ko'rinishidagi defolt darajasini oshirib yuboradi;

uchinchidan, bank tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan depozit siyosati yuzaga kelgan vaziyatni yaxshilashga emas, balki mavjud holatni saqlab qolishga yo'naltirilganligi, shuningdek, qat'iy belgilangan stavka qo'yilganligi, unda innovatsion xizmatlar paketining mavjud emasligi depozit operatsiyalarining bank balansidagi salmog'ini pasaytirib yuborishi ehtimoli katta;

to'rtinchidan, depozit siyosatini amalga oshirishda resurs bazasini omonatlar hajmini oshirish orqali deversifikatsiyalash imkoniyatlarining to'liq ko'rib chiqilmaganligi (ya'ni, depozit, kredit, likvidlilikni ta'minlash va boshqa siyosatlar o'rtasida uzviy aloqadorlik yo'qligi) mavjud vaziyatni yomonlashtiruvshi omil, deb hisoblanishi mumkin;

beshinchidan, resurs bazasini shakllantirishda qarz qimmatli qog'ozlarini

muomalaga shiqarish amaliyotining sustligi yoki umuman chiqarilmaganligi depozit siyosatining samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin;

Oltinchidan, pandemiya oqibatlari.

Yettinchidan, tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan depozit turlari hudud bo'yicha o'rganilib taqdim etilmaganligi.

Depozit operatsiyalari yordamida banklarning 70 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini banklar o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Bankning depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob'ekt va sub'ektini aniqlash lozim. Depozit operatsiyalarining obekti bo'lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo'lib balans likvidiligi, mijozlarning moliyaviy ahvolidan barqarorligi hisoblanadi.

2-jadval

Jami depozitlarning muddatlari bo'yicha qoldig'i (mlrd, so'mda) [7]

	Jami	Muddatlari bo'yicha mlrd. so'm				
		Talab qilib olinguncha	1 kundan 30 kungacha	30 kundan 180 kungacha	180 kundan 365 kungacha	1 yildan yuqori
01.09.2023 y.	220 481	86 642	4 285	30 753	28 035	70 767
01.09.2024 y.	283 138	88 786	6 052	40 043	37 748	110 510


Ushbu jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jami depozitlar 1-sentabr holatiga 283138 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 62657 mld so'mga oshganini, ya'ni 128.4% ga oshgani, uning tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar 2144 mlrd so'mga oshgan, 1 yildan yuqori depozitlar esa o'tgan yilga nisbatan esa 39743 mld so'mga oshgan.

Depozitlarning oshishi bu quvonarli albatta va bu quyidagi omillarning sababligini ko'rsatadi:

- aholi turmush darajasining yaxshilanayotgani;
- banklarda muqobil deposit siyosatining yaratilayotgani;
- aholidan moliyaviy bilim saviyasi oshayotganligini bildiradi.

Amaliyotdan bilamizki banklar jalb qilgan depoziti asosida yuridik va jismoniy shaxslarni kredit resurslari bilan ta'minlaydi.

Amaliyotdan bilamizki banklar jalb qilgan depoziti asosida yuridik va jismoniy shaxslarni kredit resurslari bilan ta'minlaydi.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlari[7]

Yil yakunlanishidan avvalgi faollik kuzatiladigan oktyabrda banklarning depozit portfeli 9.0 trln so'mga o'sib, 259.9 trln. so'mga yetgan. Oy davomida aholi omonatlari 2.5 trln. So'mga, korporativ depozitlar 6.5 trln.so'mga ko'paygan.

Bozorda Ipotekabank(+2.3 trln.so'm), Milliybank(+1.3trln.so'm), va O'zKDBbank(+1.0 trln.so'm) depozit portfellarini eng ko'p o'stirishgan.

Omonatlar bozorida Kapitalbank(+589 mlrd.so'm), Anor bank(+360 mlrd.so'm, va Asakabank(+302 mlrd.so'm) faol ishlashgan.(cbu.uz)



3-rasm. Chet el valyutadagi bank depoztlarining foiz stavkalari[8]

Depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining dinamikasida ham o'sish holatlari kuzatildi. Xususan, iyul-sentyabr oylarida yuridik va jismoniy shaxslarning jami

muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 11,9 foizdan mos ravishda 12,9, 13,5 va 15,2 foizgacha ko'tarildi. Bunda o'sish, asosan, yuridik shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalarining birinchi yarim yildagi o'rtacha 6,4 foizdan 11,4 foizgacha ko'tarilishi bilan izohlanadi.

Kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining ko'tarilishi asosan qisqa muddatli resurslar bo'yicha foizlarning oshishi hisobiga ro'y berdi.

3-jadval

ATB Mikrokreditbank Zomin Bank xizmatlari ofisida mavjud omonatlar[9]

No	Omonatlar	Mln.so'm
1	Talab qilib olinguncha omonatlar	136430
2	Muddatli omonatlar	8622853
3	Jamg'arib boriladigan omonatlar	97742

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Zomin BXO da mavjud omonatlar summasi 9mldga yaqin bo'lib, shundan muddatli omonatlar 95% muddatli omonatlarni tashkil etadi, jamg'arib boriladigan omonatlar 97742mln so'mni tashkil etadi. Jamg'arib boriladigan omonatning foizi kamligi va bu omonat diverisifikatsiya qilinmaganligi bu omonatning jami tarkibida eng foizi kami xisoblanadi.

Moliyaviy resurs sifatida omonatning afzalligi nimada?

Muddatli va jamg'arma omonatlar –nafaqat tejash, balki jamg'armalarni ko'paytirishning ishonchli usulidir. Siz bankka ma'lum miqdordagi pulni tipshirasiz, bank esa sizga mablag'lar saqlangan muddati uchun foizlar to'laydi. Masalan agar yillik 14% inflyatsiya darajasi holatida mablag'laringizni yllik 22% stavkasida bank omonatiga qo'ysangiz, siz o'z pul mablag'laringizni inflyatsiyadan himoyalab 8%daromad olasiz.

Omonatlar davlat kafolati ostida ximoyalalanadi. Yana shuni esdan chiqarmaslik lozimki, bankning litsenziyasi chaqirib olingan taqdirda , fuqarolarning bankka qo'ygan omonatlari ularning hajmi va valyutasidan qat'iy nazar to'liq hajmda qaytarib berilishi kafolatlanadi.

Xulosa va takliflar

To'plagan ma'lumotlarim o'tkazgan tahlillarim natijasida quyidagi holatlarini ijobiy deb baholash mumkin:

- ✓ Bank Kengashi va boshqaruvi tomonidan bank ustav kapitali muntazam oshib borilmoqda, bankka xorijiy reyting kompaniyalar tomonidan muntazam barqaror reytingi berib kelinayotganligi;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan normative me'yorlarning muntazam ravishda bajarilib kelinayotgani;

- ✓ Bank aktivlari, ular tarkibidagi daromad keltiruvchi aktivlar, bank jalb qilingan depozitlari, kredit qo'yilmalari, bankning korporativ mijozlari soni o'sish tendensiyasiga egaligi;
- ✓ Bank har yillik Kengash tomonidan tasdiqlab berilgan sof foyda rejasini ortig'i nilan bajarib kelayotganligi;

Shu bilan birga tahlillar natijasida ba'zi bir hal qilinishi lozim bo'lgan kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, kreditlarning asosiy qismi uzoq muddatga ajratilganligi, jalb qilingan resurslar va ajratilgan kreditlar muddati nomuvofiqligi, bank daromadining rentabellik darajasi pastligi, bank kredit portfe'li tarkiboda jismoniy shaxslarga ajratilgan chakana kreditlar salmog'ining kamligi.

Yuqoridagi ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun:

bankning jamg'arma va muddatli resurslari bazasini oshirish, ayniqsa jamg'arma depozitlarining foizini ko'tarish va turlarini ko'paytirish;

axoli moliyaviy savodxonligini oshirish, qisqa muddatli savdo va aylanma mablag' uchun ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish;

jalb qilingan resurslar muddati bilan ajratilgan kreditlar muddatini muvofiqligiga roya qilish;

bank risklarini boshqarish bilan shug'ullanuvchi xodimlar malakasini oshirish ba bank risklari ustidan kunlik monitoringni kuchaytirish;

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, "depozit sug'urtasi"ni va "pochta xizmati" larini joriy qilish;

Aholini kambag'allikdan chiqarish, turmush farovonligini yaxshilash;

Biz bilamizki aholining asosiy qatlamini, musulmonlar tashkil etadi, islom banklarini tashkil etish, yoki banklarda islomiy bo'limlar tashkil etilib, islomiy depozitlar joriy etilishi maqsadga muvofiq bolar edi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil yakunlari va 2023 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Bankovskie riski // pod red. Valensevoy N.I. Finansovaya akademiya pri Prav. RF. -2-ye izd. – M.: —KnoRus, 2008. – 132 s.;
4. Jarkovskaya Ye.P. Bankovskoe delo: uchebnik. – Moskva: —Omega-L, 2006. – 152 s.;
5. Jumaev N.X. O'zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish

- metodologiyasini takomillashtirish. – T.: —Fan va texnologiya, 2007. – 232 b.; 6. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. – M.: KnoRus, 2008. – S. 251.
7. Maknoton D. Bankovskie uchrejdeniya v razvivayuyixsya stran. Per. s angl. – Vashington: IER, 1994. 245
8. Miller L.R. Sovremennye dengi i bankovskoe delo. – M.: —Infra-M, 2000. – 256 s.
9. Mirkin Ya.M. Bank operatsiyalari: O‘quv qo‘llanma. 3- bo‘lim. Banklarning investitsion operatsiyalari. Banklarning emission faoliyati/Ya.M.Mirkin. – M: INFRA-M, 1996. -6-bet.;
10. Mishkin F.S. Ekonomicheskaya teoriya deneg, bankovskogo dela i finansovyx siklov. 7-ye izd. Per. s angl. – M.: OOO —I.D.Vilyams, 2013. – S. 295.